



Nurullayeva Sevara Nodirjon qizi

English filology and translation faculty

nuralievasevara@gmail.com

+998506662652

Annotatsiya: *Ushbu maqola adabiyot va ma'naviyatning jamiyat hamda inson hayotidagi o'rni haqida mulohaza yuritadi. Muallif adabiyot nafaqat tarbiya vositasi, balki jamiyatni o'zgartiruvchi kuch ekanini ta'kidlaydi. Kitob o'qish insonning fikrlashini rivojlantirishi, diqqatini jamlashiga yordam berishi va axloqiy jihatdan yetuk bo'lishiga xizmat qilishi haqida fikr bildiriladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar rivojiga qaramay, ma'naviyat va adabiyotning ahamiyati kamaymasligi, aksincha, jamiyat taraqqiyoti uchun zarur poydevor ekani qayd etiladi. Maqola adabiyot orqali jamiyat va inson tarbiyasini yuksaltirish g'oyasini ilgari suradi.*

Kalit so'zlar: *adabiyot, ma'naviyat, jamiyat, tarbiya, kitob o'qish, bilim, jamiyat taraqqiyoti, diqqatni jamlash, axloq, zamonaviy texnologiyalar, adabiyotning o'rni, jamiyatni o'zgartirish, ma'rifat, inson kamoloti.*

O'zbekni o'zbek qilgan — uning adabiyotidir, deb o'ylayman. Millatning ruhi ham, or-nomusi ham, tarbiyasi ham avvalo so'zda yashaydi. Yurtimizning bugungi maqomga kelishida adabiyotshunos va ijodkorlarimizning hissasi beqiyos. Masalan, Abdulla Avloniy o'zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida “Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot masalasidir”, deganida bejiz aytmagan. Yoki O'tkir Hoshimov asarlaridagi oddiy, ammo chuqur ma'noli obrazlar — o'zbekning ichki dunyosini tarbiyalab kelmoqda. Adabiyotshunos M. Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, zamonaviy o'zbek nasri milliy ruhiyatni izlash va ifodalashda muhim vositadir.

O'ylab qoldim: bir o'zbek farzandi o'zbek oilasida tug'ilib, ammo axloqsiz bo'lib voyaga yetayotgan bo'lsa, uni nima o'zgartiradi? Kim uning qalbiga nur soladi? Menimcha, bu — milliy adabiyot. Kitob o'qigan inson asta-sekin o'zgaradi: fikri tiniqlashadi, so'zi og'irlashadi, qalbi yumshaydi. Jumladan, butun dunyoga tanilgan buyuk jadid bobomiz Cho'lpon: “Erkin fikr bo'lmagan joyda taraqqiyot bo'lmaydi”, deb bejizga ta'kidlamagan. U axloqli, farosatli bo'lib boradi, so'zi, tili chiroyli bo'ladi va haqiqiy o'zbek farzandiga aylanish sari qadam qo'yadi. Tilshunos olim A. Nurmonov va N. Mahmudovning fikricha, o'zbek tili milliy ruhiyatning poydevori bo'lib, unda xalqning dunyoqarashi, axloqiy mezonlari mujassam.

Buni kim qilayapti? Shubhasiz — kitob. Adabiyot insonni tarbiyalaydi, unga yo'l ko'rsatadi. Bizga tarbiya berayotgan ota-onalarimiz ham kitob bilan oshno bo'lsa, ularning tarbiyasi yanada teran, yanada mustahkam bo'ladi, deb o'ylayman. Afsuski, ba'zan qo'lga kitob ushlaymay turmushga chiqqan ayollarni ko'ramiz. Vaqt o'tib,





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

farzandlari ulg'aygan sari turli "spektakl"larga guvoh bo'lamiz, farzandlari axloqsizligi sababli ota-onaning so'zini ikki qiladigan, axloqsiz bo'lib voyaga yetayotganlarni ko'ramiz. Yoki qanchadan-qancha yosh turmushlarning buzilib ketayotganligiga guvoh bo'layapmiz. Uzoqdan nazar solsak, oiladagi nizolar asosan ta'lim darajasi teng bo'lmagan insonlarda ko'proq kuzatilayotgandek: er o'qigan bo'lib, xotin o'qimagan yoki xotin o'qigan, er esa o'qimagan holatlar uchramoqda. Bir oilada ikki kishining fikri ikki dunyo qarashdan chiqishi oqibatida ajralishlar soni ko'payib bormoqda. Ular o'zbek xalqi vakili, ammo ma'naviy jihatdan o'zbekka mos farzandni tarbiyalashga qiynaladi. Chunki tarbiya — o'qishdan, o'rganishdan, ongli yashashdan boshlanadi.

Men shuni angladim: millatni qudratli qiladigan narsa — qurol emas, boylik emas, balki ma'rifatdir. Ma'rifat esa kitobdan boshlanadi. Adabiyot faqat tarbiya emas, jamiyatni ham o'zgartiradi. Savodli jamiyatda jinoyatlar ham kamayadi, bilimli va saviyalilar ko'payadi va xalqimizga mustahkam poydevor vazifasini o'taydi. Shuningdek, Alisher Navoiy o'zining "Mahbub-ul-qulub" asarida insoniylik va yaxshilikni jamiyat poydevori sifatida ko'rsatgan. Zamonaviy jamiyatda texnologiyalar jadallashib bormoqda, lekin ma'naviyat kam. Turli xil dasturlar, telefonlar bor, ammo fikr yo'q. Adabiyot ruhiy, ma'naviy oziq. Adabiyot bor ekan, biz jamiyatda qanday harakat qilishimizni, tutishimizni, qanday so'zlashimizni bilamiz. U biz uchun psixologik oziq. Amerikalik tilshunos B.L. Whorf odatlangan tafakkur va xulq-atvorning tilga bog'liqligini asoslagan.

Kitob bizning diqqatimizni jamlaydi. Bugungi kunda ayrim yoshlarimiz ko'p vaqtlarini telefon, smartfonlarga sarflayabdi, buning oqibatida ular diqqatini jamlashda muammolarga duch kelayabdi. Albatta, diqqatni oshirishda adabiyotning o'rni beqiyosdir. Tengdoshlaridan ajralib turish, ko'zga ko'rilmagan kamchilik, xatolarni ilg'ash insonni go'zalroq qiladi.

Bundan tashqari bir qancha yozuvchilar adabiyot taraqqiyotiga keng hissa qo'shishgan. Misol uchun, o'zbek namoyondalarimiz Navoiy, Bobur o'zbek xalqining ma'naviyatini, qadriyatlarini va o'zligini aks ettiradi. Fransiyada esa Viktor Gyugo, Aleksandr Dumas kabi buyuk vakillar adabiyotga ulkan hissa qo'shishgan. Shuningdek, Viktor Gyugo o'z asarlarida adolat va insoniylik g'oyalarini ko'p ko'targan. Bunga qo'shimcha, Fyodor Dostoyevskiy asarlari inson ruhiyatini chuqur tahlil qiladi, axloq va vijdon haqida o'ylashga majbur qiladi. U: "Jamiyat darajasini uning qamoqxonalari holatiga qarab baholash mumkin" degan — bu jamiyat va adolat haqida kuchli fikr. Dostoyevskiy asarlarida tarbiya va vijdon masalalari ko'p ko'tariladi: inson o'z xatosi bilan kurashishi, yaxshilikka intilishi kerak, deb ta'kidlanadi. Bularni o'qigan har bir o'quvchi nafaqat o'ziga xulosa chiqaradi, balki hayotiy jarayonida namuna sifatida qo'llaydi. Mustaqillik davri adabiyotida tarixiy xotira muammosi ham muhim o'rin tutadi; O. Ibrohimovning tadqiqotlariga ko'ra, bu davr adabiyoti milliy o'zlikni anglashda muhim rol o'ynaydi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, bugungi zamonaviy jamiyatda, haqiqatan ham, bilimlilar ko‘payib bormoqda. So‘nggi 4–5 yil mobaynida hayotimni o‘qish va izlanishga bag‘ishlab, turli insonlar bilan muloqot qildim, ko‘plab kitoblarni mutolaa qilib, hayotiy xulosalar chiqarib kelayapman. Har bir qadamimda adabiyotning o‘rni beqiyos, men bunga ishonaman. O‘zbekchilik hech qachon adabiyotdan ustun bo‘lolmaydi; aksincha, o‘zbekni yuksaltirib turgan narsa — men uchun aziz bo‘lgan adabiyotdir. Shuning uchun tengdoshlarimga va opa-singillarimga maslahat berardim: eng avvalo, kitob o‘qing! Kitob bizni ma‘naviy jihatdan oziqlantiradi, jamiyatda o‘z o‘rnimizni topishga yordam beradi va yuqori maqsadlarga yetaklaydi. Zero, o‘zbek tilining izohli lug‘atida ham ta‘kidlanganidek, so‘z va tafakkur insonning ma‘naviy dunyosini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy, A. (1994). Turkiy guliston yoxud axloq. 45 -betda keltirilgan iqtibos.
2. Yo‘ldoshev, M. (2020). Zamonaviy o‘zbek nasri: milliy ruhiyat izlovchi. Toshkent: Akademya nashri. – 112-betda zamonaviy nasr haqida fikr.
3. Nurmonov, A., Mahmudov, N. (2017). O‘zbek tili – milliy ruhiyatning poydevori. Xalq ta‘limi, № 6, 4–9-betlar. – 6-betda til va ruhiyat bog‘liqligi.
4. Navoiy, A. (1991). Mahbub-ul-qulub. Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. – 78-betda insoniylik va yaxshilik haqida.
6. Sapir, E. (1921). Language: An Introduction to the Study of Speech. New York: Harcourt, Brace and Company. – 132-betda til va tafakkur munosabati.
7. Whorf, B.L. (1941). The Relation of Habitual Thought and Behavior to Language. Language, Culture, and Personality: Essays in Memory of Edward Sapir. Menasha, WI: Sapir Memorial Publication Fund. – 85-betda til va xulq-atvor.
8. Ibrohimov, O. (2019). Mustaqillik davri adabiyotida tarixiy xotira muammosi. Jahon adabiyoti, № 12, 110–115-betlar. – 112-betda tarixiy xotira.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (2006). 5 jildli, II jild. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – 345-betda so‘z va tafakkur haqida.

